

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.08.2022.T.73.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

AVAZOV BOBOMUROD KURBONOVICH

**TEMIR YO‘L TRANSPORTI NOTORTUVCHI ELEKTR TARMOQLARIDA
ISHLATILAYOTGAN TRANSFORMATORLAR MOYLARINI TOZALASH
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.08.05 – Temir yo‘llarning harakatlanuvchi tarkibi, poyezdlarni tortish va elektrlashtirish

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Avazov Bobomurod Kurbonovich

Temir yo‘l transporti notortuvchi elektr tarmoqlarida ishlatilayotgan transformatorlar moylarini tozalash texnologiyasini takomillashtirish..... 3

Авазов Бобомурод Курбонович

Совершенствование технологии очистки масел трансформаторов, используемых в нетяговых электрических сетях железнодорожного транспорта..... 21

Avazov Bobomurod Kurbonovich

Improvement of the technology for cleaning transformer oils used in non-traction electrical networks of railway transport..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 44

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.08.2022.T.73.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

AVAZOV BOBOMUROD KURBONOVICH

**TEMIR YO‘L TRANSPORTI NOTORTUVCHI ELEKTR TARMOQLARIDA
ISHLATILAYOTGAN TRANSFORMATORLAR MOYLARINI TOZALASH
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.08.05 – Temir yo‘llarning harakatlanuvchi tarkibi, poyezdlarni tortish
va elektrlashtirish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/T3999 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tstu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot – ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yusupov Dilmurod Turdaliyevich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Pirmatov Nurali Berdiyevich
texnika fanlari doktori, professor

Bayanov Ildar Nazipovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.15/31.08.2022.T.73.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025 - yil "___" _____soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100176, Toshkent shahri, Temiryo'lchilar ko'chasi, 1-uy. Tel: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100176, Toshkent shahri, Temiryo'lchilar ko'chasi 1-uy. Tel: (99871) 299-05-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2025- yil "___" _____ dagi ___ raqamli bayonnomasi).

R.V. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

Y.O. Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

R.M. Mirsaatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda iqtisodiyot tarmoqlarining jadallik bilan rivojlanib borishi temir yo‘l transporti tizimlarining samarali va uzluksiz faoliyat yuritishini ta‘minlash, harakat tarkiblarining barqaror harakatini tashkil etish hamda elektr energiyasi bilan uzluksiz ta‘minlash masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Xalqaro energetika agentligiga ko‘ra hozirgi kunda dunyoda ishlab chiqarilayotgan energiya¹ning 8 foizi temir yo‘l transporti tizimiga to‘g‘ri kelmoqda. Ushbu jarayonda harakat tarkiblarni sifatli va uzluksiz elektr energiyasi bilan ta‘minlashda temir yo‘l notortuvchi elektr tarmoqlarida qo‘llanilayotgan transformatorlarning ishonchli ishlashi muhim hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, temir yo‘l tizimlaridagi transformatorlarning xizmat muddatini uzaytirish, ularni yuqori aniqlikda ishlashini ta‘minlash maqsadida uzviy texnik ko‘rikdan o‘tkazish va rejalashtirilgan ta‘mirlash ishlarini amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, temir yo‘l transporti tizimida foydalanilayotgan transformatorlarning texnik parametrlarini zamonaviy ilmiy usullar asosida baholash, ularni ekspluatatsiya qilish va xizmat ko‘rsatish texnologiyalarini takomillashtirish, ishonchliligi va samaradorligini oshirishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda temir yo‘l tizimlari notortuvchi elektr tarmoqlarida foydalanilayotgan transformatorlarida yuzaga keladigan turli nosozliklar va ularga sabab bo‘luvchi omillarni erta aniqlash, ularni bartaraf etish usullarini ishlab chiqish, mazkur uskunalarning texnik holatini baholash usullarini zamonaviy texnologiyalarni qo‘llagan holda takomillashtirish va barqarorlashtirish, ekspluatatsiya muddatini uzaytirish va ishlash samaradorligi hamda ishonchliligini oshirish, shuningdek ularga o‘z vaqtida texnik xizmatlar ko‘rsatish masalalariga qaratilgan bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, temir yo‘l tizimlari notortuvchi elektr tarmoqlarida foydalanilayotgan transformatorlar moylarining sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash, ularning yomonlashuviga sabab bo‘luvchi omillarni bartaraf etish orqali moyning texnik holatini saqlab qolish, moylarni o‘z vaqtida tozalash, maqbul tozalash texnologiyalarini tanlash va qayta tozalashning takomillashtirilgan texnologiyalarini ishlab chiqish, matematik modellashtirish orqali texnik xizmat ko‘rsatish jarayonlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida transport sohalarini, xususan temir yo‘l transporti infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yuqori tezlikdagi harakat tarkiblariga xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytirish va mavjud temir yo‘l tizimlarini elektrlashtirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar olib borilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan “...iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta‘minlash”, “...temir yo‘l sohasini transformatsiya qilish...”, “...temir yo‘l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish...”, “...transport tizimida “yashil koridorlar” va tranzit imkoniyatlarini kengaytirish...”, “...temir yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish...”² vazifalari belgilangan.

¹ <https://energy5.com/energy-consumption-benchmarking-for-railways>

Mazkur vazifalarni amalga oshirish, jumladan, temir yo‘l transporti tizimida foydalanishda bo‘lgan transformatorlardagi nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish tamoyillarini ishlab chiqish, ushbu transformatorlarning moylarini tozalash texnologiyalarini takomillashtirish va temir yo‘l notortuvchi elektr tarmoqlarning texnik holatini baholash muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 - yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” va 2019 yil 1 - fevraldagi PF-5647-son “Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019 yil 22 - avgustdagi PQ-4422-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora tadbirlari to‘g‘risida”, 2020 yil 10 - iyuldagi PQ-4779-son “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i - energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora - tadbirlar to‘g‘risida” va 2022 yil 6 - iyuldagi PQ-307-son “2022 - 2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovasion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurs tejamkorlik” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kuch transformatorlari moylarini tozalash texnologiyasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan Moldova Respublikasi Fanlar akademiyasi Amaliy fizika instituti (Moldova), Hydro - Québec ilmiy - tadqiqot markazi (Kanada), Elektr tarmoqlari xalqaro komissiyasi (Italiya), Ekson tadqiqotlar markazi (AQSh), Yangi janubiy Uels universiteti (Avstraliya), Chuvash davlat universiteti (Rossiya)da olib borilmoqda. Temir yo‘l notortuvchi elektr tarmoqlarida ishlatilayotgan transformatorlarga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash, transformatorlarning ishlash ishonchligini oshirish va texnik holatini baholashga qaratilgan muammolarni hal etishda dunyoning yetakchi olimlari: Cavallini A., Pompili A., Nelson W.D., Nguyen Zui Xing, Dong Z.Y., Phung B.T., Duval M., Enze Zhang, Leu V.I., Mixeyev G.M., Achakov K.A., Gaynullina L.R., Savinix Yu.A., Bogachkov I.M, Bersenyov A.L., Bondaletto V.G., Mochalova N.Yu., Pijov A.I., Kuznesov Yu.V., Lisov S.V. va boshqa ko‘plab xorijiy olimlar katta hissa qo‘shib kelmoqdalar.

Mamlakatimizda temir yo‘l notortuvchi tizimlaridagi transformatorlarga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash, ishlash ishonchligini oshirish va texnik holatini baholash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan yetakchi o‘zbek olimlaridan

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 – yildagi PF-60-son “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni

T.P. Salixov, B.B. Каһ, D.T. Yusupov, O.M. Qutbidinov, M.Sh. Muhammadjonov, Z.Z. Tuychiyev va boshqalar o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

Ko‘plab olib borilgan tadqiqotlar va erishilgan natijalarga qaramay, temir yo‘l transporti notortuvchi elektr tarmoqlarida ishlatilayotgan transformatorlarga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash, shu jumladan moylarini tozalash texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy - tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universiteti va “Temiryo‘linfratuzilma” AJ Qo‘qon elektr ta‘minoti masofasi filiali korxonasi o‘rtasida 2025 - yilda tuzilgan xo‘jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi temir yo‘l transporti notortuvchi elektr tarmoqlarida ishlatilayotgan transformatorlarning moylarini tozalash texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

temir yo‘l notortuvchi iste‘molchilarining transformator moylarini tozalash jarayonlarining texnologiyasini takomillashtirish;

notortuvchi elektr tarmoqlari texnik holatining qiymatini aniqlash imkonini beruvchi matematik va imitatsion modellarini ishlab chiqish;

temir yo‘l notortuvchi iste‘molchilarining transformatorlariga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tavsiyalar beruvchi algoritmini ishlab chiqish;

temir yo‘l notortuvchi tizimlari texnik holatini baholash imkonini beruvchi usulni takomillashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida temir yo‘l transporti notortuvchi elektr tarmoqlarida ishlatilayotgan transformatorlarning moylari olingan.

Tadqiqot predmetini temir yo‘l transporti notortuvchi elektr tarmoqlarida ishlatilayotgan transformatorlar moylarining tozalash jarayonlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida elektrotexnika nazariyasi, elektrostatika nazariyasi, elektromagnit induksiya qonuni, elektr maydon nazariyasi va noaniq mantiq usulidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

temir yo‘l notortuvchi iste‘molchilarining transformator moylarini tozalash texnologiyasi elektr maydon, filtr va vakuum ketma-ketlikda aralashmalardan tozalash jarayonlarini qo‘llash orqali takomillashtirilgan;

temir yo‘l notortuvchi tizimlari texnik holatini baholash uchun transformator moyining elektr mustahkamligi, kinematik qovushqoqligi, mexanik aralashmalari, suv miqdori, kislota soni, chaqnash harorati, zichlik va dielektrik isroflarini inobatga olish imkonini beruvchi matematik va imitatsion modellari ishlab chiqilgan;

temir yo‘l notortuvchi iste‘molchilarining transformatorlariga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tavsiyalar beruvchi algoritm beshta lingvistik mezonni qo‘llash orqali ishlab chiqilgan;

temir yo‘l notortuvchi tizimlari texnik holatini baholash imkonini beruvchi usul “transformator moyi asosiy ko‘rsatkichlari - transformatorning asosiy va qo‘shimcha elementlari - transformator - notortuvchi elektr tarmog‘i” ketma - ketligining har bir bosqichida 5 ta mezonni qo‘llash orqali takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

transformator moylarini tozalash jarayonlarini texnologiyasi takomillashtirilgan; notortuvchi elektr tarmoqlarida ishlatilayotgan transformatorlarning moylarini takomillashgan texnologiya asosida turli aralashmalardan tozalash imkonini beruvchi qurilma ishlab chiqilgan;

temir yo‘l transporti notortuvchi elektr tarmoqlarining texnik holatini transformator moyi orqali baholash uchun dasturiy ta‘minotlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy metrologik attestatsiyadan o‘tgan o‘lchov asboblarning, ma‘lumotlarni qayta ishlashning ilg‘or matematik usullari va me‘yoriy hujjatlarda ko‘rsatilgan tadqiqot uslublarining qo‘llanilganligi, shuningdek, nazariy va tajriba tadqiqotlari natijalarining o‘zaro mos kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati transformator moyini o‘zgarmas elektr maydon yordamida turli mexanik aralashmalardan samarador tozalash jarayonlarining matematik modeli magnit induksiyasi, elektrodning uzunligi va sirt zichligi, elektrofilterning balandligi va FIK, zaryadlangan aralashmalarning aktivligi, moyning sarfi, massasi va xarakterli o‘lchami, turbulent va laminar oqimlar uchun proporsionallik koeffitsiyenti va berilayotgan o‘zgarmas kuchlanishning qiymati asosida ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati notortuvchi elektr tarmoqlarida ishlatilayotgan transformatorlarning moylarini turli aralashmalardan tozalash imkonini beruvchi “moy nasos - elektr qizdirgich - elektr maydon - filtr - vakuum” ketma - ketligi asosida ishlaydigan qurilma ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Temir yo‘l transporti notortuvchi elektr tarmoqlarida ishlatilayotgan transformatorlar moylarini tozalash texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

temir yo‘l transporti notortuvchi elektr tarmoqlarida ishlatilayotgan transformatorlar moylarini tozalash texnologiyasi “Temiryo‘linfratuzilma” AJ Qo‘qon elektr ta‘minoti masofasi filiali korxonasiga joriy etilgan (“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ 2025-yil 2-iyuldagi 07/2549-25 - sonli ma‘lumotnomasi). Natijada korxonadagi jami 159 dona TM-25/10(6)/0,4 turidagi va 28 dona TMJ-25/27,5/0,4 turidagi kuch transformatorlari moylarini tozalash hisobiga iqtisodiy samaradorlik 257 404 500 so‘m ni tashkil etgan.

temir yo‘l transporti notortuvchi elektr tarmoqlari texnik holatini baholashning takomillashtirilgan usuli “Temiryo‘linfratuzilma” AJ Qo‘qon elektr ta‘minoti masofasi filiali korxonasiga joriy etilgan (“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ 2025-yil 2-iyuldagi 07/2549-25 -sonli ma‘lumotnomasi). Natijada “transformator moyi - transformatorning asosiy elementlari - transformator - notortuvchi elektr tarmog‘i” ketma - ketligining har bir bosqichida 5 ta mezonni qo‘llash imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobastiyasi. Dissertatsiya tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjumanlar, shu jumladan 5 ta xalqaro (1 ta scopus bazasida) va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining

dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarni chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 5 ta maqola (1 ta xorijiy va 4 ta mahalliy) jurnallarda chop etilgan va 3 ta EHM daturiga guvohnoma olingan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, ularning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Temir yo'l transporti notortuvchi elektr tarmoqlarida ishlatiladigan transformatorlarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash texnologiyalari”** deb nomlangan birinchi bobida temir yo'l notortuvchi elektr tarmoqlarida ishlatilayotgan transformatorga xizmat ko'rsatish va ta'mirlashning ahamiyati, temir yo'l notortuvchi elektr tarmoqlarida ishlatilayotgan transformatorga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilingan. Temir yo'l transporti notortuvchi elektr tarmoqlarida ishlatilayotgan transformatorlar moylarini tozalash texnologiyasini takomillashtirishni inobatga olgan holda, olib borilgan tahlillar asosida dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari shakllantirilgan.


Dissertatsiyaning **“Temir yo'l notortuvchi elektr tarmoqlarida ishlatilayotgan transformator moylarini tozalash texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha nazariy tadqiqotlarini o'tkazish”** deb nomlangan ikkinchi bobida temir yo'l notortuvchi elektr tarmoqlarida foydalanilayotgan transformator moyini elektr maydon yordamida turli mexanik aralashmalardan samarador tozalash jarayonlarining matematik modeli ishlab chiqildi. Elektrofiltarning ishlash prinsipini tavsiflash uchun qurilma parametrlarini indentifikatsiyalovchi struktura sxemasi ishlab chiqildi (1-rasm).



1 - rasm. Qurilma parametrlarining indentifikatsiyalash uchun qisqarilgan struktura sxemasi

Bu yerda, $U'_{el.m.}$ – elektr mustahkamlik, $U_{o'z}$ – o'zgarmas kuchlanish yordamida doimiy elektrostatik maydon hosil qilindi. Yuqoridagi struktura sxema asosida elektrofiltir qurilmasining ishchi sxemasi takomillashtirildi.

Bunda elektrofiltarga kirayotgan transformator moyining majburiy harakati va moy sarfini nazorat qilish orqali moy tarkibidagi elektr maydonga ta'sirchan mexanik aralashmalarni ajratib olish samaradorligi oshirildi (2 - rasm).



2 - rasm. Ishchi sxemasi takomillashtirilgan elektrofiltarning tashqi ko'rinishi:

1 - elektrokonvektor, 2 - elektrodlar, 3 - izoyator, 4 - korpus.

Transformator moyini mexanik aralashmalardan tozalashning fizik mexanizmi tashqi elektr maydoni orqali amalga oshiriladi va mexanik aralashma zarrachalariga ta'siri natijasida dipol momenti (P) hosil bo'ladi va ma'lum bir miqdordagi zaryad miqdorini shakllantiradi. Ushbu jarayon uchun elektrostatik kuchlarning funksional ifodasi quyidagicha ifodalandi:

$$\vec{f} = \begin{cases} (\vec{P} \cdot \nabla) \vec{E} \\ q \vec{E} \\ (\vec{P} \cdot \nabla) \vec{E} + q \vec{E} \end{cases}, \quad (1)$$

bu yerda $\vec{f}$ - natijaviy kuch vektori, $\vec{P}$ - dipol momenti, $\vec{E}$ - elektr maydon kuchlanganlik vektori (V/m), $(\vec{P} \cdot \nabla) \vec{E}$ - elektr maydonning qanday o'zgarayotganiga qarab dipolga ta'sir etuvchi kuch, q - zaryad miqdori.

Mexanik aralashmalar relaksatsion xarakterga ega bo'lib, elektr maydoniga ta'sirchan hisoblanadi. Agar relaksatsion xarakter hisobga olinsa, hajm birligidagi mexanik aralashmalarni konsentratsiyasi (φ) eksponentsial o'zgarishga ega bo'lib, quyidagicha ifodalandi:

$$\varphi = \varphi_0 \cdot e^{-t/\tau}, \quad (2)$$

bu yerda φ_0 - tozalanayotgan suyuqlikning boshlang'ich konsentratsiyasi, τ - relaksatsiya vaqti [soniya], t - tozalash vaqti [soniya].

Berilgan o'zgaras kuchlanish hosil qilgan magnit maydoni orqali moy tarkibidagi barcha mexanik aralashma zarrachalarini tozalab bo'lmaydi. Ushbu holatni hisobga olib, 2-ifodani berilgan o'zgaras kuchlanish uchun minimal konsentratsiyani hisobga olgan holda quyidagicha ifodalandi:

$$\frac{\varphi - \varphi_{min}}{\varphi_0 - \varphi_{min}} = e^{-t/\tau}, \quad (3)$$

bu yerda φ_{min} - mexanik aralashmalarning minimal konsentratsiyasi.

Mexanik aralashmalarni konsentratsiyasi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$\varphi = e^{-\frac{t}{\tau}}(\varphi_0 - \varphi_{min}) + \varphi_{min}. \quad (4)$$

Elektr maydoni ta'sirida mexanik aralashma zarrachalari elektrodlar tomonga ko'chadi. t - vaqt davomida transformator moyini tozalanishi natijasida elektrodda mexanik aralashmalar qatlami $-\zeta(t)$ hosil bo'ladi. Bu jarayonni vaqtga bog'liq ravishda differensial quyidagicha ifodalandi: $dm_1 = isdt$.


Mexanik aralashma massasini transformator moyi zichligi va tozalangan moyning hajmi bilan quyidagiga tengligi aniqlandi:

$$dm_1 = -\gamma V d\varphi. \quad (5)$$

Elektrofiltr ichidagi transformator moyining massasi - i ni quyidagicha aniqlandi:

$$i = \gamma \varphi u, \quad (6)$$

bu yerda: γ –suyuqlik zichligi [kg/m³], V - suyuqlik hajmi [m³], u - elektrodga ko‘chib borgan mexanik aralashma zarrachalarining massasi [kg].



3 - rasm. Elektrofiltrning fizik modeli

bu yerda m_1 –mexanik aralashmalardan hosil bo‘lgan qobiq massasi [kg], s – elektrod sirtining yuzasi [m²], i – elektrofiltr ichidagi moy massasi.

Elektr maydoni ta‘sirida elektrodga ko‘chib borgan mexanik aralashma zarrachalarining massasini aniqlash **Stoks** qonuni orqali quyidagicha ifodalandi:

$$u = b \cdot f, \quad (7)$$

bu yerda: f – mexanik aralashma zarrachasiga ta‘sir etuvchi kuch [N], b –transformator moyining harakatchanligi.

Transformator moyining harakatchanligi Stoks qonuniga asosan mexanik aralashma zarrachasining radiusi va dinamik qovushqoqligini hisobga olgan holda quyidagicha ifodalandi:

$$b = \frac{1}{6\pi\eta a}, \quad (8)$$

bu yerda: η –transformator moyining dinamik qovushqoqligi; a –mexanik aralashma zarrachasining radiusi.

5-ifodani elektrodning sirt yuzasi va hosil bo‘lgan mexanik aralashma zarrachalari qatlami orqali quyidagicha qayta tahrir qilindi:

$$dm_1 = \gamma_1 dV_1 = \gamma_1 s \cdot d\zeta. \quad (9)$$

Agar vaqt o‘tishi bilan elektrofiltr hajmini ($V = l - \zeta$) kamayishini hisobga olsak va mexanik zarrachalar konsentratsiyasi orqali ifodalasak, u holda 9-ifoda quyidagi ko‘rinishga keldi:

$$d\varphi = -\frac{\gamma_1}{\gamma} \cdot \frac{d\zeta}{l-\zeta}, \quad (10)$$

bu yerda γ_1 – tozalangan transformator moyining zichligi [kg/m³], ζ –qatlam, l –qatlam uzunligi [m].

Agar moy elektrofiltrdan o‘tib mexanik aralashmalardan maksimal darajada tozalandi deb olsak, 10 - ifoda quyidagi ko‘rinishga keldi:

$$\varphi = \varphi_0 + \gamma_1^* \ln(l - \zeta^*), \quad (11)$$

bu yerda: $\gamma_1^* = \gamma_1/\gamma$ -suyuqlikning nisbiy o'zgarishi, $\zeta^* = \zeta/l$ - qatlamning nisbiy qalinligi.

Yuqoridagi shartga ko'ra, 11 - ifodani quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$\zeta_m^* = 1 - e^{-\varphi_0/\gamma_1^*}. \quad (12)$$

Agar mexanik aralashmalarni konsentratsiyasini juda kichik deb olinsa, quyidagi ifoda o'rinli bo'ladi:

$$\zeta_m \cong \frac{\varphi_0 l}{\gamma_1^*}. \quad (13)$$

Oxirgi ifodada ishtirok etayotgan uchta parametr o'zgarish kattaliklar bo'lib, tashqi ta'sirlarga ega emas. Shuning uchun $\zeta_m = \text{const}$ deb hisoblash mumkin.

4, 5 va 11- ifodalardan mexanik aralashmalar qatlamining vaqt bo'yicha o'zgarish tenglamasini keltirib chiqarish mumkin:

$$\frac{\gamma_1^* l}{b} \cdot \frac{d\zeta^*}{[\varphi_0 + \gamma_1^* \ln(1 - \zeta^*)]f} = dt, \quad (14)$$

bu yerda: f —mexanik aralashma zarrachalariga ta'sir etuvchi kuch [N].

Birinchi muhit uchun ya'ni qattiq mexanik aralashmalar uchun zaryad zichligi differensial ko'rinishda quyidagicha ifodalandi:

$$\begin{aligned} \frac{dD_I^{(1)}}{dx} &= \sigma_1 \Rightarrow D_I^{(1)} = \sigma_1 x + c', \quad x \in [0; \zeta], \\ D_I^{(1)}|_{x=0} &= 0 \Rightarrow c' = 0 \Rightarrow D_I^{(1)} = \sigma_1 x, \end{aligned} \quad (15)$$

bu yerda $D_1^{(1)}(x)$ —zaryad zichligini qatlam qalinligiga bog'lanish funksiyasi x —qatlam qalinligi [m].

Ikkinchi muhit uchun ya'ni quyuq mexanik aralashmalar uchun zaryad zichligi differensial ko'rinishda quyidagicha ifodalandi:

$$\frac{dD_{II}^{(1)}}{dx} = \sigma_2 \Rightarrow D_{II}^{(1)} = \sigma_2 x + c'', \quad x \in [\zeta; l]. \quad (16)$$

Qatlamlarda elektr maydon kuchlanganligi ichki elektr maydon kuchlanganligiga tenglashib, dipol momentini hosil qiladi va natijada qutblanish kuchlari vujudga keladi:

$$f_p = P \frac{dE_{II}(x)}{dx} \Big|_{x=\zeta} = \frac{P}{\varepsilon_0 \varepsilon_2} \cdot \sigma_2. \quad (17)$$

Hosil bo'lgan dipol momenti tashqi elektr maydoniga to'g'ri proporsional, zaryadni zichligi esa potentsiallar farqiga to'g'ri proporsional deb hisoblansa, yuqoridagi ifoda quyidagi shaklga o'tadi: $mf = (1 + \alpha)qE(\zeta)$.

Agar transformator moyining tarkibidagi mexanik aralashmalar konsentratsiyasi juda kichik bo'lsa va hosil qilinayotgan tashqi elektr maydoni yassi kondensator shaklida bo'lsa, α ni hisobga olmasa ham bo'ladi.

Agar elektrofildrdan vaqt birligida majburiy ravishda Q miqdordagi transformator moyi tozalansa, ya'ni majburiy transformator moyi oqimi orqali ifodalash orqali quyidagi ifodaga ega bo'ladi:

$$v_0 = \frac{Q}{S}, \quad (18)$$

bu yerda: S —elektrofildrning effektiv ko'ndalang kesim yuzasi, Q - transformator moyi sarfi, v_0 — transformator moyining elektrofildrga kirish tezligi [m/s].

Agar majburiy transformator moyi aylanmasi amalga oshirilmasa, u holda ushbu shart uchun quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\varphi^* = 1 - h^* \cdot \frac{e^{\lambda t} - 1}{e^{\lambda t} - v}. \quad (19)$$

Mexanik aralashmalar oqib o‘tish tezligining ko‘ndalang tashkil etuvchisi umumiy holatda, quyidagicha ifodalandi: $u = u_E + v_j + v_1$. Bu yerda $u_E - E_0$ elektr maydoni ta’sirida yuzaga kelgan asosiy yo‘nalishdan og‘gan transformator moyining tezligi, v_j – hosil qilingan elektr maydoni va konveksiya ta’sirida yuzaga kelgan transformator moyini tezligi, v_1 – konveksiya va majburiy transformator moyi oqimiga perpendikulyar yo‘nalishdagi tezligi.

Agar $t \rightarrow \infty$ bo‘lsa, u holda 19 - ifoda quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$\varphi_{\infty}^* = 1 - c_0 \frac{L}{H} Re_l^{-\frac{1}{2}} - \frac{L(kE_0 + c \frac{jQ^2}{k\eta})}{Hv_0} = (1 - \psi_{00}^*) - \frac{L(kE_0 + c \frac{jQ^2}{k\eta})}{Hv_0}, \quad (20)$$

bu yerda: ψ_{00}^* – transformator moyining mexanik aralashmalardan tozalanish darajasini ko‘rsatuvchi koeffitsiyent bo‘lib, tajribalarni ko‘rsatishicha ushbu koeffitsiyent $\psi_{00}^* = 0,1$ qiymatgacha ortishi mumkin ($\psi_{00}^* + \varphi_{00}^* = 1$ ga teng) va quyidagicha ifodalanadi:

$$\psi_{00}^* = c_0 \frac{L}{H} Re^{-\frac{1}{2}} = c_0 \frac{L}{H} \sqrt{\frac{vB}{Q}}. \quad (21)$$

(20) ifoda izohi va (21) - ifodalarni hisobga olgan holda (21) ifodani qayta tahrirlab quyidagicha ifodalandi:

$$\varphi_{00}^* - \varphi_{\infty}^* = \frac{U}{Q} \cdot \frac{B \cdot L}{H} \left(k + c \frac{\sigma Q^2}{k\eta} \right). \quad (22)$$

(22) - ifodaning B, L, H pramaterlar ham o‘zgarmas deb hisoblandi. Shunga ko‘ra quyidagi belgilashlar kiritildi: $M = \frac{B \cdot L}{H} \left(k + c \frac{\sigma Q^2}{k\eta} \right)$.

Agar yetarli vaqt tozalash imkoniyati mavjud bo‘lsa, ya’ni $t \rightarrow \infty$, mexanik aralashmalarning tozalanish darajasini amaliy tajriba natijalari bilan solishtirish imkoni paydo bo‘ladi. Buning uchun eng kichik kvadratlar usulidan foydalanamiz.

U/Q - chiziqli o‘zgaruvchi funksiya emas, shu sababli ushbu nisbat uchun quyidagicha $U/Q = \chi$ belgilash kiritildi.

Demak, $\chi^m \rightarrow \chi$ bog‘lanish orqali ifodalanadi: $\varphi_{00}^* - \varphi_{\infty}^* = \chi^m \cdot M$.

Ushbu ifodani darajasi bo‘yicha logarifmlasash orqali quyidagi ifoda olindi:


$$\ln(\varphi_{00}^* - \varphi_{\infty}^*) = m \ln \chi + \ln M, \quad (23)$$

bu yerda quyidagicha belgilashlar kiritildi: $\ln \chi \equiv k$; $\ln M \equiv n$; $\ln(\varphi_{00}^* - \varphi_{\infty}^*) \equiv N$ kabi belgilashlar kiritilsa, u holda eng kichik kvadratlar usuli shartiga ko‘ra quyidagi ifoda olindi:

$$\overline{(mk + n - N)^2} = \min(m, n). \quad (24)$$

Temir yo‘l notortuvchi elektr tarmoqlaridagi transformator moylarini elektr maydonda turli aralashmalardan tozalash jarayonlarining nazariyasi ishlab chiqildi.

Transformator moyini tozalash jarayonlarining takomillashtirilgan texnologik sxemasi uch bosqichda ishlaydi (4 - rasm):



4 - rasm. Transformator moyini tozalash jarayonlarining takomillashtirilgan texnologik sxemasi: 1 - kuch transformatori; 2 - sirkulyatsiya uchun moy nasosi; 3 - moy qizdirgich; 4 - elektromagnit filtr; 5 - filtr; 6 - moy nasosi; 7 - vakuum uskunasi; 8 - vakuum nasosi; 9 - transformatorning kengaytirish baki; 10...18 - ventillar

Birinchi bosqich. Ushbu bosqich transformator moyini qizdirgich va elektromagnit filtdan sirkulyatsion o'tkazishdan iborat bo'lib, aylanma sikl quyidagi tartibda bajariladi: (1) transformatoridagi tozalanuvchi moy (10) ventil orqali (2) moy nasos yordamida oqib o'tadi va (11) ventil orqali (4) qizdirgichdan o'tgan moy (12) ventil orqali (4) elektromagnit filtr qurilmasiga uzatiladi. Moy (4) elektromagnit filtr yordamida tozalanib (13) ventil orqali (9) transformatorning kengaytirish bakiga, so'ng (1) transformatorning o'ziga qayta quyiladi. Ushbu jarayonda (10), (11), (12) va (13) ventillar ochiq holatda, (14), (15) va (17) ventillar esa yopiq holatda bo'ladi. Dastlabki bosqichda transformator moyi qizdirgich va elektromagnit filtr yordamida zaryadlanadigan mexanik aralashmalardan tozalanadi.

Ikkinchi bosqich. Ushbu bosqich transformator moyini qizdirgich va filtdan sirkulyatsion o'tkazishdan iborat bo'lib, aylanma sikl quyidagi tartibda bajariladi: (1) transformatoridagi tozalanuvchi moy (10) ventil orqali (2) nasos yordamida oqib o'tadi, keyin (11) ventil orqali (3) qizdirgichdan o'tadi, (15) ventil orqali (5) filtrga uzatiladi. Moy (5) filtr yordamida tozalanib (20) ventildan oqib borib (9) transformatorning kengaytirish bakiga, so'ng (1) transformatorga qayta quyiladi.


Ushbu jarayonda (10), (11), (14), (16) va (17) ventillar ochiq holatda, (12), (13), (15) va (18) ventillar esa yopiq holatda bo'ladi. O'rta bosqichda transformator moyi filtr yordamida zaryadlanmaydigan mexanik aralashmalardan tozalanadi.

Uchinchi bosqich. Ushbu bosqich transformator moyini qizdirgich va vakuumdan sirkulyatsion o'tkazishdan iborat bo'lib, aylanma sikl quyidagi tartibda bajariladi: (1) transformatoridagi tozalanuvchi moy (10) ventil orqali (2) nasos yordamida oqib o'tadi, (11) ventil orqali (3) qizdirgichdan o'tadi, keyin (15) ventil orqali (7) vakuum uskunasi uzatiladi. Moy (7) vakuum uskunasi yordamida tozalanib, (18) ventildan o'tib (9) transformatorning kengaytirish bakiga, so'ng (1) transformatorga qayta quyiladi. (8) vakuum nasosi yordamida suvli aralashmalar tortib olinadi. Ushbu jarayonda (10), (11), (15) va (18) ventillar ochiq holatda, (12), (13), (14) va (16) ventillar esa yopiq holatda bo'ladi. Oxirgi bosqichda transformator moyi vakuum uskunasi yordamida suvli aralashmalardan tozalanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra temir yo'l notortuvchi tizimlarida ishlatilayotgan transformatorlar moylarini tozalash jarayonlarining texnologiyasi elektr maydon


yordamida zaryadlangan, filtr yordamida zaryadlanmagan mexanik aralashmalardan va vakuum yordamida suvli aralashmalardan tozalash jarayonlarini inobatga olgan holda takomillashtirildi.

Dissertatsiyaning **“Temir yo‘l notortuvchi elektr tarmoqlarida ishlatilayotgan transformator moylarini takomillashtirilgan texnologiya asosida tozalash bo‘yicha tajriba tadqiqotlarini o‘tkazish”** deb nomlangan uchinchi bobida tajriba tadqiqotlari o‘tkazildi. Tajriba tadqiqotlarini o‘tkazish uchun **takomillashtirilgan texnologiya asosida** transformator moylarini turli aralashmalardan tozalash imkonini beruvchi “moy nasos - elektr qizdirgich - elektromagnit filtr - filtr - vakuum” ketma - ketligida qurilma ishlab chiqildi. Ushbu qurilma yordamida “Temiryo‘linfratuzilma” AJ Qo‘qon elektr ta‘minoti masofasi filiali korxonasida foydalanilayotgan TM-25/10(6)/0,4 va TMJ-25/27,5/0,4 turidagi transformatorlarda ishlatilayotgan T-1500 turidagi transformator moyini tozalash bo‘yicha tajriba tadqiqotlari o‘tkazildi (5 - rasm).




5 - rasm. Mobil qurilma yordamida tajriba tadqiqotlarini o‘tkazish jarayoni

Transformator moyning tozalashdan oldingi va tozalashdan keyingi holatlar uchun moylaridan na‘muna olinib, 8 ta ko‘rsatkich (elektr mustahkamlik, kinematik qovushqoqlik, mexanik aralashmalar miqdori, suv miqdori, kislota soni, chaqnash harorati, zichlik, dielektrik yo‘qotishlar) bo‘yicha laboratoriya tekshiruvlari amalga oshirildi (6 -, 7 - rasmlar).



6 - rasm. Transformator moyining tozalashdan oldingi va keyingi har bir bosqichda elektr mustahkamligi bo‘yicha natijalari




7 - rasm. Transformator moyining tozalashdan oldingi va keyingi har bir bosqichda mexanik aralashmalar miqdori bo'yicha natijalari

Tozalashdan oldingi holat uchun laboratoriya tekshiruv natijalariga ko'ra ikki turdagi transformator moylari ekspluatatsiyaga yaroqsiz ekanligi aniqlandi. Mobil qurilma yordamida TM - 25/10(6)/0,4 turidagi transformatorning moyini tozalash jarayoni o'tkazildi, so'ng TMJ - 25/27,5/0,4 turidagi transformator moyini tozalash jarayoni o'tkazildi. Har bir tajriba tadqiqotlari uch bosqichda amalga oshirildi. Olib borilgan tajriba tadqiqotlaridan so'ng tozalangan moylardan na'muna olinib, 8 ta ko'rsatkich (elektr mustahkamlik, kinematik qovushqoqlik, mexanik aralashmalar miqdori, suv miqdori, kislota soni, chaqnash harorati, zichlik, dielektrik yo'qotishlar) bo'yicha qayta tekshirildi. Tekshiruv natijalariga ko'ra TM 25/6(10)/0,4 va TMJ 25/27,5/0,4 turlaridagi transformator moylari mobil qurilma yordamida tozalanganidan so'ng ekspluatatsiyaga yaroqli ekanligi aniqlandi. Olib borilgan tajriba va nazariy tadqiqot natijalari o'zaro solishtirildi. Natijada ular orasidagi farq (adekvatlik) 5 % ga teng ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Temir yo'l transporti notortuvchi elektr tarmoqlarining texnik holatini transformator moyi orqali baholash”** deb nomlangan to'rtinchi bobida transformator moyning ko'rsatkichlari, transformator asosiy va qo'shimcha elementlari, transformator hamda notortuvchi tarmog'i texnik holati uchun matematik modellari ishlab chiqildi:


$$\begin{aligned} \text{transformator moyning texnik ko'rsatkichlari: } R_{kor} &= \frac{\sum_{i=1}^5 w_{Kkor(i)} * \mu_i^*(y_1)}{\sum_{i=1}^5 \mu_i^*(y_1)}; \\ \text{transformator elementlari texnik holati: } Y_{tr.elem.} &= \frac{\sum_{i=1}^{125} w_{tr.elem(i)} * \mu_i^*(y_{tr.elem})}{\sum_{i=1}^{125} \mu_i^*(y_{tr.elem})}; \\ \text{transformatorning texnik holati: } R_{tr} &= \frac{\sum_{i=1}^{625} w_{tr(i)} * \mu_i^*(y_{tr})}{\sum_{i=1}^{625} \mu_i^*(y_{tr.l})}; \\ \text{notortuvchi elektr tarmog'i texnik holati: } R_{n.tor.} &= \frac{\sum_{i=1}^{625} w_{not.(i)} * \mu_i^*(y_{not.})}{\sum_{i=1}^{625} \mu_i^*(y_{not.l})}. \end{aligned}$$

Temir yo'l notortuvchi elektr tizimlari texnik holatining qiymatini aniqlash algoritmi transformator moyining elektr mustahkamligi, kinematik qovushqoqligi, mexanik aralashmalari, suv miqdori, kislota soni, chaqnash harorati, zichlik va dielektrik isroflari ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda ishlab chiqildi (8 - rasm).




8 - rasm. Notortuvchi elektr tarmoqlari texnik holatining qiymatini aniqlash algoritmi

Algoritim quyidagicha ishladi: dastlab texnik holat qiymatini aniqlash uchun transformator moyining 8 ta asosiy diagnostik parametri kiritiladi va dastlabki bosqichda fazzifikatsiya (noaniqlashtirish) amalga oshirildi. Ushbu bosqichda π , L , γ turidagi a'zolik (mansublik) funksiyalari orqali aniq ma'lumotlar noaniq ifodalanishga o'tkazildi. Shundan so'ng, kirish va chiqish o'zgaruvchilari o'rtasidagi mantiqiy bog'liqliklar "Agar - keyin" (If - then) qoidalari asosida belgilanadi, har bir qoidaga tegishli faollik darajalari aniqlandi. So'nggi bosqichda esa defazzifikatsiya (aniqlashtirish) jarayoni amalga oshirildi. Bunda centroid usuli qo'llanib, hosil bo'lgan noaniq natijalardan aniq texnik holat qiymati aniqlandi. Yuqorida aniqlangan qiymatlar asosida temir yo'l notortuvchi tizimlaridagi transformatorlarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha tavsiyalar beruvchi algoritim beshta lingvistik mezon (juda yomon, yomon, o'rtacha, yaxshi va a'lo)ni qo'llash orqali ishlab chiqildi (9 - rasm).




9 - rasm. Transformatorlarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha tavsiyalar berish jarayonlarining ketma-ketligini ifodalovchi algoritmi

Baholash mexanizmi kirish (10 - rasm) va chiqish (11 - rasm) o'zgaruvchilarining mos mansublik funksiyalarini aniqlash, hamda ular orasidagi noaniq qoidalarni ishlab chiqish orqali amalga oshirildi. Temir yo'l transporti notortuvchi elektr tarmoqlarining texnik holatini aniqlashga doir qoidalar bazasi 12 - rasmda keltirilgan bo'lib, u mazkur tizimning umumiy texnik ko'rsatkichlarini baholash imkonini beradi.




10 - rasm. Kirish parametri “Elektr mustahkamlik” ning mansublik funksiyasi




11 - rasm. Chiqish parametri “Qog‘oz izolyatsiyasi” ning mansublik funksiyasi

Kirish o'zgaruvchilari sonining ko'pligi va ularning har biri besh darajali qiymatga ega bo'lgani sababli, umumiy texnik holatni aniqlashda minimallashtirish tamoyiliga amal qilindi. Bunda yakuniy baho kirish parametrlarining eng past qiymatiga qarab belgilandi.



12 - rasm. Noaniq mantiq yordamida “Qog‘oz izolyatsiyasining umumiy texnik holatini baholash” qoidalar bazasi

MATLAB muhiti Fuzzy Logic oynasida yaratilgan qoidalar majmuasi asosida temir yo‘l transport notortuvchi elektr tarmoqlarining texnik holatini transformator moyi ko‘rsatkichlari orqali aniqlovchi imitatsion model ishlab chiqildi (13 - rasm).



13 - rasm. Notortuvchi elektr tarmoqlari texnik holatini qiymatini aniqlash imkoni beruvchi imitatsion model

Ushbu imitatsion model notortuvchi tizim elementlarining ishlashini matematik asosda takrorlab, ularning texnik holatini baholash va real ma'lumotlarga asoslanib, nosozlik xavfini aniqlash va xizmat ko'rsatishni rejalashtirish imkoniyatini beradi.

Temir yo‘l notortuvchi elektr tarmoqlari texnik holatining qiymatini aniqlash imkoni beruvchi matematik va imitatsion modellar noaniq mantiqning π , L , γ mansublik sinflaridan foydalanib, transformator moyining elektr mustahkamligi, kinematik qovushqoqligi, mexanik aralashmalari, suv miqdori, kislota soni, chaqnash harorati, zichlik va dielektrik isrofi ko'rsatkichlarini inobatga olib ishlab chiqildi.

Yuqorida olib borilgan tadqiqotlar natijasida temir yo‘l notortuvchi tizimlarining texnik holatini baholash imkonini beruvchi usul “transformator moyi – transformatorning asosiy va qo‘shimcha elementlari – transformator – notortuvchi elektr tarmog‘i” ketma – ketligining har bir bosqichida 5 ta mezon (juda yomon, yomon, o‘rtacha, yaxshi va a‘lo)ni qo‘llash hisobiga takomillashtirildi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida temir yo‘l notortuvchi tizimlarida ishlatilayotgan transformatorlarning moylarini tozalash texnologiyasi “Temiryo‘linfratuzilma” AJ Qo‘qon elektr ta‘minoti masofasi filiali korxonasiga joriy etildi. Natijada korxonada jami TM-25/10(6)/0,4 turidagi 159 ta va TMJ - 25/27,5/0,4 turidagi 28 ta kuch transformatorlarining moylarini tozalash hisobiga umumiy 257 404 500 so‘m miqdorida yillik iqtisodiy samaradorlikka erishildi.

Xulosa

“Temir yo‘l transporti notortuvchi elektr tarmoqlarida ishlatilayotgan transformatorlar moylarini tozalash texnologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosa taqdim etilgan:

1. Transformator moylarini tozalash jarayonlarining texnologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. Natijada temir yo‘l notortuvchi elektr tarmoqlarida ishlatilayotgan transformatorlar moylarini tozalash jarayonlarining texnologiyasi elektr maydon yordamida zaryadlangan, filtr yordamida zaryadlanmagan mexanik aralashmalardan va vakuum yordamida suvli aralashmalardan tozalash jarayonlarini inobatga olgan holda takomillashtirildi.

2. Noaniq mantiqning π , L, γ mansublik sinflaridan foydalangan holda tadqiqotlar o‘tkazilgan. Natijada temir yo‘l notortuvchi elektr tarmoqlari texnik holatining qiymatini aniqlash imkoni beruvchi matematik va imitatsion modellar transformator moylarining elektr mustahkamligi, kinematik qovushqoqligi, mexanik aralashmalari, suv miqdori, kislotasi soni, chaqnash harorati, zichlik va dielektrik isroflarini inobatga olgan holda ishlab chiqildi.

3. Beshta lingvistik mezon orqali baholanuvchi moyning asosiy ko‘rsatkichlarini inobatga olgan holda tadqiqotlar o‘tkazilgan. Natijada temir yo‘l notortuvchi elektr tarmoqlarida ishlatilayotgan transformatorlarga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tavsiyalar berish jarayonlarining ketma - ketligini ifodalovchi algoritm ishlab chiqildi.

4. “Transformator moyi asosiy ko‘rsatkichlari – transformatorning asosiy va qo‘shimcha elementlari – transformator – notortuvchi elektr tarmog‘i” ketma – ketligining har bir bosqichida 5 ta (“juda yomon”, “yomon”, “o‘rtacha”, “yaxshi”, “a‘lo”) mezonlarini qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilgan. Natijada temir yo‘l notortuvchi elektr tarmoqlarining texnik holatini baholash imkonini beruvchi usul takomillashtirildi.

5. Olib borilgan tajriba va nazariy tadqiqot natijalari o‘zaro solishtirilgan. Natijada ular orasidagi farq (adekvatlik) o‘rtacha 5 % ga teng ekanligi aniqlandi.

6. Temir yo‘l transporti notortuvchi elektr tarmoqlarida ishlatilayotgan transformatorlar moylarini tozalash texnologiyasi va texnik holatini baholashning takomillashtirilgan usuli “Temiryo‘linfratuzilma” AJ Qo‘qon elektr ta‘minoti masofasi filiali korxonasiga joriy etilgan. Natijada korxonadagi jami TM-25/10(6)/0,4 turidagi 159 dona va TMK-25/27,5/0,4 turidagi 28 dona kuch transformatorlarining moylarini tozalash hisobiga umumiy iqtisodiy samaradorlik 257 404 500 so‘mni tashkil etgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.15/31.08.2022 Т.73.07 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТРАНСПОРТНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

АВАЗОВ БОБОМУРОД КУРБОНОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ОЧИСТКИ МАСЕЛ
ТРАНСФОРМАТОРОВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В НЕТЯГОВЫХ
ЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СЕТЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА**

05.08.05 - Подвижной состав железных дорог, тяга поездов и электрификация

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент - 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2023.3.PhD/T3999.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном транспортном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (<http://tstu.uz>) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Юсупов Дилмурод Турдалиевич
доктор философии по техническим наукам (PhD),
старший научный сотрудник

Официальные оппоненты:

Пирматов Нурали Бердиярович
доктор технических наук, профессор

Баянов Илдар Назипович
доктор философии по техническим наукам (PhD), доцент

Ведущая организация:

Ферганский государственный технический
университет

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.15/31.08.2022.T.73.07 при Ташкентском государственном транспортном университете "___" _____ 2025 г. в ___ часов. Адрес: 100176, г. Ташкент, ул. Темирйулчилар, 1. Тел.: (99871) 299-00-01; факс: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного транспортного университета (зарегистрирована под номером ____). (Адрес: 100176, г. Ташкент, ул. Темирйулчилар, 1. Тел.: (99871) 299-05-66.

Автореферат диссертации разослан "___" _____ 2025 г.

(Протокол No ___ от "___" _____ 2025 г.).

Рахимов Р.В.

Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.т.н., профессор

Рузметов Ю.О.

Ученый секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
DSc., профессор

Мирсаатов Р.М.

Председатель Научного семинара
при Научном совете по присуждению
учёных степеней, д.т.н., профессор

Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире ускоренное развитие отраслей экономики придает особое значение вопросам обеспечения эффективного и бесперебойного функционирования систем железнодорожного транспорта, организации устойчивого движения подвижного состава и бесперебойного обеспечения электроэнергией. По данным Международного энергетического агентства, в настоящее время 8% производимой в мире энергии приходится на систему железнодорожного транспорта. В этом процессе надежная работа трансформаторов, используемых в нетяговых электрических сетях, важна для обеспечения подвижного состава качественной и бесперебойной электроэнергией. Опыт развитых стран показывает, что особое внимание уделяется систематическому техническому осмотру и проведению плановых ремонтных работ с целью продления срока службы трансформаторов и обеспечения их высокой точности. В частности, проверка технического состояния трансформаторного масла признается важным процессом в раннем выявлении и предотвращении неисправностей. Также большое внимание уделяется оценке технических параметров трансформаторов, используемых в системе железнодорожного транспорта, на основе современных научных методов, совершенствованию технологий их эксплуатации и обслуживания, повышению надежности и эффективности.

Учитывая, что в мире трансформаторы широко используются в энергетической и производственной промышленности, они считаются основным электрооборудованием для передачи и распределения электроэнергии на большие расстояния, бесперебойного электроснабжения систем автоматики, телемеханики и связи на железной дороге через неотяжные электрические сети. Проводится ряд исследований, направленных на вопросы стабилизации технического состояния трансформаторов, продления срока эксплуатации и повышения эффективности их работы. В этом направлении являются актуальными вопросами, в том числе, раннее выявление неисправностей, возникающих в трансформаторах, разработка методов их устранения и совершенствование технического обслуживания путем математического моделирования этих процессов, поддержание качественного состояния трансформаторного масла, его своевременная очистка, выбор наиболее оптимальных методов очистки и разработка усовершенствованных структурных схем очистных устройств.

В результате реформ, проводимых в нашей республике, осуществляется масштабная работа по модернизации транспортных отраслей, в частности, инфраструктуры железнодорожного транспорта, расширению возможностей обслуживания высокоскоростного подвижного состава и электрификации существующих железнодорожных сооружений. В этом процессе особое значение имеет надежная работа трансформаторов, являющимися основным элементом распределения электроэнергии в нетяговых электрических сетях железных дорог. В Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены задачи, в том числе «бесперебойное обеспечение экономики

электроэнергией и активное внедрение технологий «Зеленой экономики» во все отрасли, повышение энергоэффективности экономики на 20 процентов». Реализация данных задач, в том числе выявление неисправностей трансформаторов и разработка принципов их устранения, совершенствование технологий очистки трансформаторных масел и оценка технического состояния неразборных электрических сетей, является одним из важных вопросов.

